O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASI

# TOSHKENT SHAHRINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-APREL***

***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



Sanoat **statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71-202-80-46**

# Toshkent shahrining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-aprel oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida shahar korxonalari tomonidan 27,2 trln. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 109,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (77,6 %)ni  hamda ishlab chiqarish hajmi 21,1 trln. so‘mni tashkil etdi.




*B – Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, C – Ishlab chiqaradigan sanoat D – Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, E – Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,6 % ga o’sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning 15,6 % ga, hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash 14,1 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilishda – 13,7 % ga, pasayish kuzatildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,4 trln. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,2 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
*(yanvar-aprel oylarida, % da)*




## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Gaz kondensati** | **Tabiiy gaz**






## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar- aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Neft,** *ming t.* | 220,3 | 207,1 | -13,2 |
| **Tabiiy gaz,** *mln. kub.m.* | 11 731,3 | 11 909,1 | 177,8 |
| **Gaz kondensati,** *ming t.* | 249,0 | 252,7 | 3,7 |
| **Chaqiq tosh** *t.* | 29 415,4 | 4 424,5 | -24 990,9 |
| **Shag’al** *t.* | 12 076,2 | | |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 21,1 trln. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 77,6 % ini tashkil etdi.

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi,**
**(yanvar-aprel oylarida, % da)**




O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 10,3 % ni (2021- yilning yanvar-aprel oylarida – 12,7 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 22,3 % (20,6 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 28,4 % (28,6 %) va quyi texnologiyalisi – 39,0 % (38,1 %)ni tashkil etdi.

**Yuqori texnologiyali**




**O‘rta-yuqori texnologiyali**




**O‘rta-quyi texnologiyali**




**Quyi texnologiyali**




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta‘mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim

tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 21,8 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,2 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 13,2 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 124,8 %), toʻqimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 7,3 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 122,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,1 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 131,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 8,0 % (2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 119,5 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning oʻsish sur’ati

2022- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 1052,4 tonna makaron va shunga o’xshash un mahsulotlari ( 27,4 % ga oshgan), 22,8 mln litr pivo (22,6 % ga oshgan), 2,4 mln litr uzum vinosi (9,6 %) hamda 11,6 ming tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (40,8 % ga kamaygan) ishlab chiqarilganligi kuzatildi.

**Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da**

**Oʻsimlik yogʻI (tozalangan)**




**Margarin va yormalar**




**Yumshoq bugʻdoy va spelta uni**




**Pivo**




**Aroq**




**Uzum vinosi**



| Tamaki mahsulotlari | Paxta kalavasi |
|---|---|







## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni,** *ming tonna.* | 19,7 | 11,6 | -8,0 |
| **Paxta kalavasi,** *ming tonna.* | 19,8 | 14,5 | -5,3 |
| **Margarin va yormalar** *ming tonna.* | 2,0 | 1,3 | -0,7 |
| **Pivo –** *mln litr* | 18,6 | 22,8 | 4,2 |
| **Traktorlar -** *dona* | 173,0 | 73,0 | -100,0 |
| **Sovutgich va muzlatgichlar -** *ming dona* | 166,2 | 152,2 | -14,0 |
| **Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar,** t. | 4954,0 | 4774,0 | -180,0 |
| **Tamaki mahsulotlari,** *mln. dona* | 709,6 | 685,6 | -24,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-aprel oylarida qishloq xo‘jaligi texnikasi ishlab chiqarish sanoatida, jami 73 dona traktorlar ishlab chiqarildi, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 42,2 % ga ko’paygan.

**Toshkent shaharda traktor ishlab chiqarish sanoati,**
*yanvar-aprel oylarida*

***miqdori dona***




***o‘sish sur’ati, % da***




## Toshkent shaharda yengil avtomobillar ishlab chiqarish sanoati

*yanvar-aprel oylarida, dona*



"Volkswagen Caddy"



## Metallurgiya sanoati

*(yanvar-aprel)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida metallurgiya sanoati ulushi 9,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 61,0 % ga ko’paygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ulushi 10,3 % gacha ko‘tarilib, fizik hajm indeksi esa, 124,8 % va ishlab chiqarish hajmi 2791,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 3,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 28,2 % ga kamaygan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,3 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 9,4 % ga ko’paydi va ishlab chiqarish hajmi 908,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 8,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 10,4 %, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 36,6 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2835,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.




## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 4,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 7,0 % ga oshgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 7,1 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 124,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1921,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-aprel oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 131,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 5,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 22,3 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 1532,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.






## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*(yanvar-aprel oylarida)*






2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 147,7 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,1 % ni, fizik hajm indeksi 85,6 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 261,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## <u>Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish</u>

*(yanvar-aprel oylarida)*

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga koʻra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi 12,6 % ga ko’paydi, ishlab chiqarish hajmi esa 722,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.






## <u>Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish</u>

*(yanvar-aprel oylarida)*







2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga koʻra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 55,4 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 32,6 % ga ko’paygan boʻlib, ishlab chiqarish hajmi 65,7 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

***FHI***
***% da***






2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 106,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi, fizik hajm indeksi 371,4 % ni, hamda ishlab chiqarish hajmi 1028,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*(yanvar-aprel oylarida)*

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 107,9 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,6 % ni, fizik hajm indeksi 124,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 965,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



***FHI***
***% da***



# Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*yanvar-aprel oylarida*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1,3 trln. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,0 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 15,6 % ga kamayganligi kuzatildi.

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,**

*(yanvar-aprel oylarida, % da)*







## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt.s* | 83,5 | 132,1 | 48,6 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 6500,7 | 5825,0 | -675,7 |
| **Elektroenergiya uzatish bo’yicha xizmatlar,** *mln so ‘m.* | 282,1 | 273,5 | -8,6 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

*yanvar-aprel oylarida*







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,4 trln.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,0 % ini) tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi,

*(yanvar-aprel oylarida, % da)*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 27,8 | 50,2 | 22,4 |
| **(Xavfli bo‘lgan chiqindilar toksik) kimyoviy, tonna** | 164,4 | 91,8 | -72,6 |
| **Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash, mlrd. so‘m** | 60,0 | 85,4 | 25,4 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan xavfli bo‘lgan chiqindilar (toksik) kimyoviy bo‘yicha xizmatlar 44,1 % ga kamaydi, tabiiy suv; suvni qayta ishlash va ta’minlash 42,4 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo’yicha xizmatlar 80,8 % ga o’shish kuzatildi.

## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11,7 trln.so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 131,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 43,0 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,2 % (2021- yil yanvar-aprel oylarida 5,5 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to'g'ri kelib 16,9 % ni, shuningdek, Sirg'ali tumani 14,9 % ni, Chilonzor tumani 12,7 % ni hamda Olmazor tumani 9,1 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida shaharda o'sish sur'ati (107,7 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Chilonzor (209,7 %), Shayxontoxur (165,4 %), Yakkasaroy (163,5 %), Yangihayot (160,3 %), Mirzo Ulug'bek (140,1%), Sirg'ali tuman (135,6 %) tumanlarida hamda Mirobod tumanida (133,1 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022-yilning yanvar-aprel oylarida*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 11 675,3 | 100 | 131,9 |
| Uchtepa | 883,0 | 7,6 | 96,4 |
| Bektemir | 917,8 | 7,9 | 128,2 |
| Yunusobod | 391,7 | 3,4 | 129,4 |
| Mirzo Ulug’bek | 491,5 | 4,2 | 140,1 |
| Mirobod | 814,0 | 7,0 | 133,1 |
| Shayxontoxur | 586,6 | 5,0 | 165,4 |
| Olmazor | 1067,2 | 9,1 | 113,4 |
| Sirg’ali | 1735,2 | 14,9 | 135,6 |
| Yakkasaroy | 706,1 | 6,0 | 163,5 |
| Yashnobod | 1975,0 | 16,9 | 107,0 |
| Yangihayot | 623,3 | 5,3 | 160,3 |
| Chilonzor | 1483,9 | 12,7 | 209,7 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Yashnobod tumaniga to‘g‘ri kelib, 20,0 % shuningdek, Chilonzor 17,3 %, Uchtepa tumani 9,6 % ni, Mirobod tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

## Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | 6 943,4 | 100 | 134,3 |
| **Uchtepa** | 666,5 | 9,6 | 94,1 |
| **Bektemir** | 224,6 | 3,2 | 208,6 |
| **Yunusobod** | 162,4 | 2,3 | 113,5 |
| **Mirzo Ulug’bek** | 363,4 | 5,2 | 134,5 |
| **Mirobod** | 597,3 | 8,6 | 109,8 |
| **Shayxontoxur** | 506,9 | 7,3 | 187,1 |
| **Olmazor** | 495,3 | 7,1 | 102,7 |
| **Sirg’ali** | 440,5 | 6,3 | 117,4 |
| **Yakkasaroy** | 397,8 | 5,7 | 142,6 |
| **Yashnobod** | 1387,4 | 20,0 | 110,4 |
| **Yangihayot** | 502,5 | 7,2 | 184,4 |
| **Chilonzor** | 1199,0 | 17,3 | 260,5 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining shaharda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Sirg’ali tumaniga to‘g‘ri kelib 29,8 % ni, shuningdek, Bektemir tumani 16,3 % ni, Olmazor tumani esa 13,5 % ni tashkil etdi.

# Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| | *Mlrd. so‘m* | *Ulushi % da* | *O‘sishi % da* |
|---|---|---|---|
| **Toshkent shahri** | 4 246,9 | 100 | 135,8 |
| **Uchtepa** | 216,5 | 5,1 | 104,1 |
| **Bektemir** | 693,2 | 16,3 | 113,9 |
| **Yunusobod** | 205,8 | 4,8 | 157,4 |
| **Mirzo Ulug’bek** | 128,1 | 3,0 | 159,2 |
| **Mirobod** | 216,7 | 5,1 | 319,2 |
| **Shayxontoxur** | 50,5 | 1,2 | 99,3 |
| **Olmazor** | 571,9 | 13,5 | 124,6 |
| **Sirg’ali** | 1265,3 | 29,8 | 146,7 |
| **Yakkasaroy** | 308,3 | 7,3 | 201,6 |
| **Yashnobod** | 184,9 | 4,4 | 128,1 |
| **Yangihayot** | 120,9 | 2,8 | 103,8 |
| **Chilonzor** | 285,0 | 6,7 | 116,3 |

# Toshkent shahri  hududlari kesimida
# sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|
| Toshkent shahri | 27 157,3 | 100,0 | 109,6 |

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da | Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi % da | O‘sishi % da |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Uchtepa | 1336,2 | 4,9 | 97,2 | Bektemir | 1614,8 | 5,9 | 109,9 |
| Yunusobod | 1127,3 | 4,2 | 110,1 | Mirzo Ulug’bek | 1571,1 | 5,8 | 101,4 |
| Mirobod | 2099,4 | 7,7 | 102,1 | Shayxontoxur | 1924,5 | 7,1 | 107,8 |
| Olmazor | 1777,1 | 6,5 | 98,5 | Sirg’ali | 3276,7 | 12,1 | 111,8 |
| Yakkasaroy | 1968,6 | 7,2 | 109,7 | Yashnobod | 6703,3 | 24,7 | 95,8 |
| Yangihayot | 1066,5 | 3,9 | 103,4 | Chilonzor | 2691,8 | 9,9 | 142,2 |

## <u>Toshkent shahri  hududlari kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati</u> *% da*

| Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi indeksi, *% da* | | Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati, *% da* |
|---|---|---|
| 97,2 | **Uchtepa** | 96,4 |
| 109,9 | **Bektemir** | 128,2 |
| 110,1 | **Yunusobod** | 129,4 |
| 101,4 | **Mirzo Ulug‘bek** | 140,1 |
| 102,1 | **Mirobod** | 133,1 |
| 107,8 | **Shayxontohur** | 165,4 |
| 98,5 | **Olmazor** | 113,4 |
| 111,8 | **Sirg‘ali** | 135,6 |
| 109,7 | **Yakkasaroy** | 163,5 |
| 95,8 | **Yashnobod** | 107,0 |
| 103,4 | **Yangihayot** | 160,3 |
| 142,2 | **Chilonzor** | 209,7 |

Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Toshkent shahrida o‘sish sur’ati (120,1 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Chilonzor (209,7 %), Shayxontohur (165,4 %), Yakkasaroy (163,5 %) hamda Yahgihayot tumanlarida (160,3 %) qayd etildi.

## Toshkent shahri jami sanoat mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da

Shaharda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Yashnobod tumani (shaharda sanoat ishlab chiqarish hajmining 24,7 % ) hamda Sirg’ali (12,1 %), Chilonzor (9,9 %), Mirobod (7,7 %) va Yakkasaroy (7,2 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Eng past ko‘rsatkich esa Yangihayot (3,9 %) hamda Yunusobod (4,2 %) tumanlariga to‘g‘ri kelmoqda.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Bektemir (33248,9 ming so‘m), Yashnobod (24199,7 ming so‘m) hamda Sirg’ali tumanida (23597,9 ming so‘m) shaharda o‘rtacha daraja ko‘rsatkichidan (6734,7 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Shahar bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 10550,0 ming so‘mdan yuqori ko’rsatkich Bektemir tumanida – 17717,8 ming so‘mni, Sirg’ali tumanida – 11740,1 ming so‘mni, Yashnobod tumanida – 7045,9 ming so‘mni, Yakkasaroy tumanida –5666,7 ming so‘mni tashkil etdi.

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida, ming so‘m*

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Toshkent shahri | 9632,5 | 4054,2 |

| | Sanoat mahsulotlari | Iste’mol mahsulotlari |
|---|---|---|
| Uchtepa | 4737,7 | 3070,1 |
| Bektemir | 33248,9 | 17717,8 |
| Yunusobod | 3171,4 | 1085,4 |
| Mirzo Ulug’bek | 5111,5 | 1560,3 |
| Mirobod | 14542,7 | 5548,7 |
| Shayxontohur | 5476,4 | 1647,3 |
| Olmazor | 4660,7 | 2752,7 |
| Sirg’ali | 23597,9 | 11740,1 |
| Yakkasaroy | 16029,6 | 5666,7 |
| Yashnobod | 24199,7 | 7045,9 |
| Yangihayot | 7276,2 | 4066,1 |
| Chilonzor | 10211,0 | 5537,1 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*2022- yilning yanvar-aprel oylarida, % da*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 8,1 trln. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 29,8 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 60,9%), Yunusobod (41,0 %), Yakkasaroy (39,2 %), Chilonzor (34,8 %) hamda Mirzo Ulug’bek (33,6 %) tumanlarida kuzatildi.






Toshkent shahar hududlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yashnobod (13,5 %), Uchtepa (24,3 %), Mirobod (25,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

*(2022- yil 1- aprel holatiga ko‘ra)*

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,0 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 2,1 mingtasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 12,9 % i) Olmazor tumanida, 2,0 mingtasi (12,3 %) Chilonzor tumaniga, 1,8 mingtasi (11,5 %) Uchtepa tumaniga, 1,7 mingtasi (10,6 %) Yunusobod tumaniga, 1,4 mingtasi (8,8 %) Shayxontohur tumaniga, 1,4 mingtasi (8,6 %) Mirzo Ulug’bek tumaniga to‘gri kelmoqda.




2022- yilning yanvar-aprel oylarida shahardada 586 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, shulardan 72 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari hajmidagi 12,3 %) Olmazor tumanida, 67 tasi (11,4 %) Chilonzor tumanida, 62 tasi (10,6 %) Uchtepa tumanida, 56 tasi (9,6 %) Yashnobod tumanida, 54 tasi (9,2 %) Yunusobod tumanida hamda 52 tasi (8,9 %) Shayxontohur tumanida tashkil etildi.

## Shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari

*2022- yil 1- may  holatiga ko‘ra*

Bugungi kunda shahar va tumanlar kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan eng ko‘p sanoat korxonalari joylashgan hududlar Olmazor (2 061 ta), Chilonzor (1 963 ta), Uchtepa (1 838 ta), Yunusobod (1 693 ta) hamda  Shayxontohur  (1 408 ) tumanlarida  qayd etildi.

**Toshkent shahrida  eng ko‘p sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda)*




**Toshkent shahrida  eng kam sanoat ishlab chiqarish korxonalari joylashgan shahar va tumanlar 10 taligi**

*(2022- yil 1- may holatiga ko‘ra, birlikda)*




2022-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatayotgan eng kam sanoat korxonalari joylashgan hududlar esa Bektemir (554 ta), Yangihayot (601 ta), Mirobod (942 ta), Sirg’ali (997 ta), Yakkasaroy (1 198 ta), Yashnobod (1 375 ta), Mirzo Ulug’bek (1378),Shayxontohur (1417), Yunusobod (1668), Uchtepa (1842) tumanlarida qayd etildi.


**Sanoat statistikasi bo’limi**

*Tel.: (71) 203-88-16*